Dunyoning taniqli fizik olimlari Samarqandda to`plandi

“Katta adron kollayderida o‘tkazilayotgan fizik tadqiqotlar” mavzusida Xalqaro konferensiya ishtirokchilari 2018 yil 13-sentyabr kuni Samarqand shahriga ham tashrif buyurishdi. Dastlab Samarqand davlat universitetida konferensiyaning navbatdagi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. So‘ngra konferensiya ishtirokchilari Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylarini borib ko‘rishdi. Yurtimizdagi boy tarix va madaniyatga ega shaharlar orasida Samarqandning alohida o‘rni bor. Qadimiy va hamisha navqiron, yer yuzining sayqali, Sharq gavhari degan ta’rifu tavsiflarga sazovor bo‘lgan bu shahar azaldan ilm-fan, savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lib kelgan. Bu yerda xalqimizning yuksak aql zakovati, bunyodkorlik salohiyatini butun dunyoga tarannum etgan buyuk siymolar kamol topgan.

Eslatib o‘tamiz, Samarqand Davlat universiteti O‘zbekistonning eng keksa universitetlaridan biri hisoblanadi. Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari sohasidagi ilmiy izlanishlar yadro fizikasi kafedrasi va yadro-fizikasi laboratoriyasida olib boriladi. Mikrotronda olinadigan tezlatilgan elektronlar dastasi, gamma-kvantlar va fotoneytronlar oqimi va 300 metrli yer osti kanali mavjudligi fanning turli yo‘nalishlariga, texnika va ishlab chiqarish tarmoqlariga zarur bo‘lgan noyob eksperimentlar o‘tkazish va jahon miqyosidagi ilmiy natijalar olish imkonini beradi.